

“TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ASARIDA “DAHSHAT”NING NAMOYON BO‘LISHI

Jalilova Munavvar

BuxDU, Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Tushda kechgan umrlar” asarida “dahshat”ning namoyon bo‘lishi, qahramonlar hayoti va ruhiyatidagi qo‘rquv haqida fikr yuritiladi. Asardagi dahshatli voqealar tahlil qilinadi, bosh qahramonlarning dunyosidagi dahshat nima ekanligi haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: “dahshat” atamasi, qo‘rquv, absurd, absurd vogelik, ekzisentializm, komissar, sarkazm, inson konsepsiysi.

“Tushda kechgan umrlar” romanini tanqidchilar o‘zbek badiiy adabiyotdagi yangi xodisa o‘laroq baholaydilar. Xususan, ustoz Umarali Normatov bu asar haqida “...Tushda kechgan umrlar romani 90-yillar o‘zbek adabiyotidagi jiddiy voqe, muhim yangilikdir. Bir qarashda roman yangi o‘zbek adabiyotida muayyan an’anaga aylanib qolgan mavzu va muammolar – mustabid tuzum tanqidi, afg‘on urushi, “o‘zbeklar ishi” qurbanlari haqida bahs etadi. Biroq badiiy asarda, xususan, romanda yozuvchining yangi so‘zi u yaratgan jonli va ko‘lamli shaxslar timsoli orqali gavdalananadi.” Tushda kechgan umrlar romanidagi talay personajlar, xususan, ikki yorqin qahramon – Rustam va Komissar obrazlarini yozuvchining bugungi adabiyotimizdagi yangi so‘zi, yangi kashfiyoti desa bo‘ladi”¹ deya fikr bildiradi. Asarning boshidan to oxirigacha mungli ohang hukmronligiga urg‘u berib “Kuz o‘lim tushagida yotgan bemorga o‘xshaydi” deb boshluvchi jumlada uning asosiy pafosi – hazinlik, qayg‘uligiga diqqat qaratdi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida dahshat so‘ziga quyidagicha izoh beriladi. 1. DAHSHAT – [a.-hayronlik, hayratda qolish] Nihoyat darajadagi qo‘rqinch, xavf, vahima... 2. Azob-iztirobga soluvchi mudhish ahvol... 3. Ortiq darajada qo‘rqan, vahimaga yoki azob-iztirobga tushgan kishining ko‘rinishi, ruhiy holati. Mazkur so‘zning uch xil ma’nosи badiiy asarda ham turli variantlarda takrorlanib turadi. E’tabor berilsa dahshat kategoriyasining uch tipi : birinchisi nihoyat darajada qo‘rqinch vahimaning o‘zi – ushbu tip, asosan retsepiyent va ijodkor o‘qi bo‘ylab amalga oshadi, ya’ni asaryozish va o‘qish jarayonidan, uning kompozitsion qurilishidan, butun boshli konsepsiyanidan yuzaga chiqadi. Xuddi shunday “Tushda kechgan umrlar” romanini

¹ D.Quronov Romanning yangi umri

yaxlit butunlik sifatida qaralsa, romanning boshidan to oxiriga qadar mung, qo‘rquv insonning yashagan umridagi dahshatlar mujassam. Ikkinci tip – azob-uqubatga soluvchi mudhish ahvol – asosan, syujet liniyasidagi epizodlar bilan bog‘liq bo‘lib asarda bunday epizodlar salmoqli qismni tashkil etadi. Afg‘onistonidagi har bir jang tasvirida dahshatning ushbu tipi bo‘y ko‘rsatib turadi, bundan tashqari Komissarning begunih Fotimani zo‘rlashi, uning o‘z joniga qasd qilishi, Rustamning o‘lim tasviri, Husanxo‘janing Komissar tomonidan otilishi barchasi ushbu tipga mansubdir.

Ortiq darajada qo‘rqan, vahimaga yoki azob-iztirobga tushgan kishining ko‘rinishi, ruhiy holati personajlar holati, ular tushgan vaziyatning mohiyati bilan bog‘liq tarzda kechadi. Jumladan, Rustamning Afg‘on urushining butun dahshatini his qilgan nuqta – o‘lgan onasini emgan murg‘ak bolaning mudhish ahvoldan. personaj dahshatga tushadi. Uning ruhiy qiynoqlari quyidagicha tasvirlangan:

“Avval ich-ichimdan titroq keldi. Keyin qo‘limning barmoqlari muzlay boshladi. Undan keyin oyoqlarim qaltiray boshladi. Tankka qanday yetib bordim esimda yo‘q.

– Otaman! –dedim o‘kirib. Hammangni otaman! O‘zimniyam otaman!”¹ Ishimizda faqatgina Izohli lug‘atda berilgan dahshat so‘zining lug‘aviy ma’nolari bilangina cheklanib qolmaymiz, zero dahshat mavzu sifatida ham, estetik kategoriya sifatida ham, yoki bir motiv sifatida ham badiiy asarning muhim unsuridir. Ushbu atamaning yana bir ikkinchi nomi sifatida absurdni keltirish mumkin, biz ikkala so‘zning bir-biriga ekvivalent degan fikrdan yiroqmiz, shunchaki ularning bir-biriga yaqin xususiyatlari mavjudligiga diqqatni qaratamiz xolos. Absurd dahshatdan ko‘ra kengroq tushuncha bo‘lib o‘z ichida ham dahshatni, ham yorug‘likka intilishni nazarda tutadi. Ammo absurdning bosh mazmuni insoniyatning butun umri davomidagi yo‘lsizlik va chorasizlik dahshatidir. D. Quronov “Tushda kechgan umrlar”ni ekzistensializm nuqtayi nazaridan tushunmoqchi bo‘linsa, Rustam obrazi talqinida o‘ziga tamomila “begona dunyoda”(mohiyatan Afg‘onistonda ham, o‘zining tug‘ilib o‘sgan yurtida ham), o‘ziga “dushman dunyo”da yashagan shaxs fojeasini ko‘rish mumkinligini ta’kidlaydi. Rustam o‘zi yashyotgan dunyoda o‘zini mutlaq “begona”his qiladi, o‘z dunyosidan mantiq, hayotidan ma’ni topolmaydi, ayni shu sharoitda uning qarshisida “hayot yashab o‘tishga arziydimi?”qabilidagi absurdga xos savol ko‘ndalang bo‘lganligini ham aytib o‘tadi. Rustam atrofdagi chirkin muhitdan, o‘zining ichidagi dahshatdan qutilishning yagona chorasi sifatida o‘limni idrok etadi. Ammo personajning o‘limi ijodkorningda absurd kayfiyatidan qutilganidan, dahshatning tugashidan darak, ya’ni “O‘tkir Hoshimov umidvorlik hissidan mosuvo emas, uning uchun “absurd voqelik” jamiyat taraqqiyotidagi bir bosqich, “absurd

¹ Tushda kechgan umrlar.62.. Bet.

tuyg‘usi” shu bosqichda yo‘lsizlikdan qiynalayotgan shaxs dunyoqarashi, kayfiyatidagi muvaqqat holat. Kamyu uchun esa, ma’lumki absurd – universal xodisa, u absurd tushunchasini insoniyatning tongidan shomiga qadar, azaldan abadga qadar tadbiq etadi”¹

Tushda kechgan umrlar” qahramonlari Komissar va Rustam “dahshat” ichida yashaydi, o‘zlarining hayotidagi dahshatlarni ba’zan idrok etadi, ba’zan esa yo‘q. Komissar o‘zgalar qarshisida individual shaxs o‘laroq mavjud emas. Uning bor-u yo‘g‘i Komissarligida xolos. Uning Soat G‘aniyevich degan ismi sharifi bor bo‘lsa-da, ismi-sharifidan ko‘ra Komissar degan laqabi unga ko‘proq munosib. Ijodkor uning shaxs emas, kasb, mansab-martaba, mafkura odamiligini; bu odam butun umri davomida mustabid tuzum, totalitar rejim mafkurasi, siyosati qalqoni va qilichi sifatida ish ko‘rganligini, necha minglab odamlarning hayotini, dilini jarohatlab, yostig‘ini quritganligini urg‘ulaydi. Personaj nutqidagi “...o‘rtoq tergovchi men “grajdanim G‘aniyev emas, iste’fodagi polkovnik, o‘rtoq G‘aniyevman! Marhamat qilib, o‘rtoq polkovnik, deb murojaat qilishingizni so‘rayman. O‘rtoq kamissar desangiz ham roziman. Meni taniganlar o‘rtoq komissar deyishadi”.² Personaj uchun Soat G‘aniyev bo‘lishdan ko‘ra polkovnik yoki komissar bo‘lish afzal, o‘zgalarga o‘zini Komissar sifatida ko‘rsatib, atrofdagilarga nomi bilan ham qo‘rquv, dahshat solishga o‘rganib qolgan. Uning hayotining mazmuni ham shu – hammaning qalbida o‘ziga nisbatan qo‘rquv, dahshat bo‘lishini istaydi. Adabiyotshunoslik lug‘atida sarkazmning badiiy moduslardan biri sifatida baholangan. Lug‘atda “Sarkazm badiiylik modusi sifatida yumor bilan birga bir guruhni tashkil qiladi. Agar yumorda niqob ostida individuallik bo‘lsa, sarkazm niqob ostida individuallikning yo‘qligi bilan xarakterlanadi. Sarkazm badiiylik modusi qahramoni uchun niqob olamda mavjudlikning yagona shakli uning bori yo‘g‘i niqob, shuning uchun undan ayrilib qolmaslikka harakat qiladi”.³ Ayni shunday Komissar ham o‘zini o‘zga nomda o‘zga shaxs sifatida idrok eta olmaydi, “komissar” sifatida qolish uning hayotda yashash shakli. Komissarning tergovchi bilan suhbatda o‘zini xuddiki tergovchidek, qarshisidagi shaxsni esa tergov ishlarida uquvi yo‘q merov sifatida ko‘radi. Komissar yoshligidan o‘zgalarning qalbiga vahima, qo‘rquv va dahshat solishga harakat qilib kelgan, uning uchun bu hayotda qolish, o‘zgalardan ustunlik hissini tuyish uchun zaruratga aylangan. ”...U tengqur bolalarning munosabati o‘zgarib qolganini avval payqamadi. Bora-bora tushundiki, o‘rtoqlari undan qo‘rqrar ekan! To‘rttasi gaplashib turgan bo‘lsa, Soat yaqin borishi bilan kelishib olgandek jimib qoladi.Yo‘q, gaplashishadi u bilan. Gaplashadi-yu,

¹ D.Quronov. Davra suhbati. Romanning yangi umri.

² Yuqoridagi manba.12. Bet.

³ D.Quronov va b. Adabiyotshunoslik lug‘ati. 272. Bet.

begonaligi sezilib turadi. G‘alati holat. Soat ham g‘ururlanadi, ham ko‘ngli o‘ksiydi”.¹ Otasining o‘ldirlishi va qishloq aholisidan 20 nafarining qamalishi atrofdagilarni Soatdan ajratib, ularning ko‘ngliga vahima soladi. Qahramonning yoshlik holati tasvirlanganda Soat ismining berilishi bejiz emas, zero u hali mustabid tuzumning bir vintchasi bo‘limgan. Ayni shuning uchun atrofdagilar undan qo‘rqqani uchun g‘ururlansa ham, ko‘ngli o‘ksiydi. Hamma qatori bola bo‘la olmayotganidan eziladi. Barcha bolalar qilishi mumkin bo‘lgan sho‘xlik, ahamiyatsiz ish qorbo‘ron o‘yinida qilingan kichik xato o‘zgalar nazdida katta fojea sifatida baholanadi. Bu esa Soatning ruhiyatiga jiddiy zarar beradi. U atrofdagilarning nazdida Soat sifatida yuqorilay olmasligiga amin bo‘lgani sari atrofdagilarni qo‘rquvga solish bilan o‘zini yuqorida his qila olishini anglaydi. Ijodkor personajning Soatdan Komissarga evrilishini quyidagicha tasvirlaydi.”Soat! – dedi sohilda o‘rik shoxining bir uchidan tutib turgan To‘lagan. Ushla cho‘kib ketasan jinni!

Soat holdan toyganqo‘llarini ojiz tipirlatarkan , qirg‘oq tomonga nafrat bilan qaradi.

–Yo‘qol dedi! – nafasi qaytib. – Menga sening yordaming kerak emas.

–Burilib, narigi sohil tomon suzdi...Nihoyat, Na’matak shoxiga chang soldi. Kaftiga tikan kirganini ham, og‘riqni ham sezmadni. Entikib-entikib nafas rostladi.Na’mataklar changalzori oralab tik sohilga chiqquncha tikanlar a’zoyi badanini qonatib tashladi. Qarasa bolalar narigi sohilda qatorlashib turishibdi.

–Eshitib qo‘ylaring ! – alam aralash g‘azab bilan. Men Komissar bo‘laman! Albatta bo‘laman! Hammangni otaman! Bitta bittadan otaman.²

Soat o‘z tengqurlari bilan jamiyat hayotida tenglikni saqlash uchun chora topa olmadi. Natijada o‘zini youz sifatida namoyon etish uni nisbatan baxtiyor qilishi mimkinligiga o‘zini ishontiradi. Uning Husanxo‘jaga majburan o‘rik oldirishi personajning zug‘umkor sifatidagi ilk ko‘rinishi, ayni shu nuqtada u o‘zini o‘zgalardan yuqori his qiladi, xuddi hukmdordek Husanxo‘jaga ish buyuradi. Ojiz insonni egib unga aytganini qildirayotgan zulumkor atrofdagilarning g‘azabiga uchrab suvgaga tashlanadi.

Xulosa qilinsa “Tushda kechgan umrlar” romani o‘zbek adabiyotida yangi burulish yasagan romanlardan biri bo‘ldi. An’anaviy qishloq-shahar zidligi, yoki xubin shaxslarning kirdikori emas, balki butun jamiyat, insonlarning hayotidagi azob-uqubatlar, hayot mazmuni dahshat mavzu sifatida yoritildi.

¹ Tushda kechgan umrlar. 17. Bet.

² Tushda kechgan umrlar. 19. Bet.

Romanda yaratilgan personajlaridan Rustam va Komissar obrazlari o‘zbek adabiyotidagi yangicha inson konsepsiyasi “mavjudlik” va “yashash” shaklini alohida tushunishda muhim ro‘l o‘ynadi.

“Tushda kechgan umrlar” romani realistik proza namunasi bo‘lib, unda afg‘on urushining butun dahshati bo‘y ko‘rsatadi. Ijodkor syujet liniyasini hozir va o‘tmish qolipida tuzadi, ya’ni Rustamning o‘limi va u bilan bog‘liq voqealar asosiy xronotop bo‘lsa-da, ijodkor har bir persojaning o‘tmishdagi hayotiga erkin ko‘chaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Т.: Navoiy universiteti, 2018.
2. Қўчкорова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари. – Т.: Мухаррир, 2011.
3. Умров X. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т.: Фан, 1983.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллӣ энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. 5-жилдлик. 5-жилд.
5. Куронов Д., Мамажанов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013.– 406 б.
6. O‘tkir Hoshimov “Tushda kechgan umrlar” asari.